

“Muddatli to'lov evaziga smartfon” aksiyasi qoidalari

“Muddatli to'lov evaziga smartfon” (keying o'rinlarda – **“Aksiya”**) Aksiyasini o'tkazish qoidalari aksiyani o'tkazish tartibini va unda ishtirok etish shartlarini belgilaydi.

“Abonent”

Operator bilan shartnoma tuzgan, Operatorning ofertasiga qo'shilgan, shu asosda uyali aloqa xizmatlaridan foydalanish imkoniyati berilgan jismoniy shaxs. Abonent raqami (SIM-karta) o'z nomiga ro'yxatdan o'tkazilgan hamda xizmatlar haqini to'lash va oferta shartlariga rioya etish majburiyatlari zimmasiga yuklangan shaxs abonent hisoblanadi;

“Abonent raqami”

Operator tomonidan abonentga ajratilgan, telekommunikatsiya tarmog'iga ulangan abonent uskunasi boshqa qurilmalar bilan ulanganda identifikatsiyalanadigan raqam;

“Mobil balans”

Abonentning Operatordagi shaxsiy hisobvarag'ida hisobga olingan va Operator xizmatlariga haq to'lash uchun mo'ljallangan pul mablag'lari;

“Mobil ilova”

axborot va texnologik o'zaro aloqa uchun mo'ljallangan maxsus kompyuter dasturiy mahsulotlari majmuasidan iborat axborot tizimi;

“Mobil qurilma”

Operator tomonidan abonentga muddatli to'lov sharti bilan beriladigan mobil telefon;

“Operator”

“Beeline” savdo belgisi ostida uyali aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi, Aksiya tashkilotchisi bo'lgan “UNITEL” MChJ;

“Operatorning rasmiy sayti”

Kompaniyaning www.beeline.uz manzilida joylashgan rasmiy veb-sayti;

“Skoring”

Ariza beruvchini baholash tartibi - bu Operator tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda boshqa qonuniy manbalardan olingan ma'lumotlar asosida, muddatli to'lovni olish shartlariga muvofiqligini tekshirish maqsadida o'tkaziladigan jarayon. Skoring natijalari Operator tomonidan Shartnoma tuzish to'g'risida qaror qabul qilishda qo'llaniladi;

“Ishtirokchi”

Ushbu Qoidalarga muvofiq Aksiyada qatnashish huquqiga ega bo'lgan hambi llovasi abonent.

Aksiya o'tkazilish muddati: 2026-yil 10-fevraldan 2026-yil 31-dekabrgacha yoki Operator ixtiyoridagi Mobil qurilmalar to'liq sotilgunga qadar, qaysi hodisa oldin sodir bo'lishiga qarab.

Ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar:

Aksiyada quyidagi shartlarga javob beradigan Abonentlar ishtirok etishi mumkin:

- O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi;
- 18 (o'n sakkiz) yoshga to'lgan bo'lishi;
- Operator tomonidan o'tkaziladigan Skoring jarayonidan muvaffaqiyatli o'tishi.

Aksiyada ishtirok etish imkoniyatini tekshirish Abonentning o'zi tomonidan Operatorning rasmiy veb-saytida yoki “hambi” mobil ilovasidagi maxsus shaklga potensial Ishtirokchining Abonent raqamini kiritish orqali oldindan amalga oshirilishi mumkin.

Tekshiruv paytida tasdiq ko'rsatilsa, Abonent Operatorning eng yaqin rasmiy ofisiga tashrif buyurib, Aksiyada ishtirok etishi mumkin. Aksiyada ishtirok etishga ruxsat berilgan abonent qo'shilish shartnomasi shartlari bilan oldindan tanishib chiqishi va qo'shilish to'g'risidagi arizani imzolash orqali ularni qabul qilganligini tasdiqlashi shart. Ushbu shart bajarilgandan keyingina Aksiyada ishtirok etishga ruxsat beriladi.

Agar tekshiruvda rad javobi ko'rsatilsa, Aksiyada ishtirok etishga ruxsat berilmaydi. Shaki ma'lumotlari har hafta yangilanadi.

Muddatli to'lov shartlari

Mobil qurilma modeli	Muddatli to'lov narxi, so'm/oy QQS bilan	Muddatli to'lov muddati, oy.	Mobil qurilma narxi, so'm QQS bilan
Samsung Galaxy A07	149 900	12	1 798 800
ZTE A56	100 000	12	1 200 000
ZTE A76	115 000	12	1 380 000

Birinchi oylik to'lov Abonent tomonidan Mobil qurilmani qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga asosan olishdan oldin amalga oshiriladi. Keyingi oylik to'lovlar Qo'shilish shartnomasiga muvofiq, har oyda birinchi to'lov amalga oshirilgan sanada, Abonent tomonidan muddatli to'lov majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar hisobdan chiqariladi. Pul mablag'lari Mobil balansdan yechib olinadi.

Muddatli to'lov aksiyasi doirasida Abonent har oyda 150 GB internet-paketiga ega bo'ladi. Internet-paket har oyda muddatli to'lov uchun mablag' yechilganda avtomatik ravishda taqdim etiladi va mavjud Abonentlar uchun asosiy tarif rejasiga chegirma sifatida qo'shiladi. Internet-paketdagi trafik 30 (o'ttiz) kalendar kun davomida amal qiladi. Internet-paket jami 12 (o'n ikki) marta beriladi. Paketdagi trafik tugagach yoki paket muddati o'tgach, internet xizmatidan foydalanish Abonentning belgilangan tariflariga muvofiq hisoblanadi. Oylik, haftalik yoki kunlik paketlar bilan bir vaqtda ulanganda, paketlardagi trafik jamlanadi. Trafikning amal qilish muddati ulangan paketlar ichida eng uzun muddatli paket bo'yicha belgilanadi.

Yakuniy shartlar

Muddatli to'lovga mo'ljallangan mobil qurilma faqat Abonent raqami egasi nomiga rasmiylashtirilishi mumkin.

Abonent ushbu qo'shilish shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajarmagunicha, Ishtirokchi "Raqamni qayta rasmiylashtirish" va/yoki "Raqamni o'zgartirish" xizmatlaridan foydalana olmaydi.

Ishtirokchi muddatli to'lov davrida tarif rejasini cheklolarsiz o'zgartirish huquqiga ega.

Aksiyada ishtirok etish talablariga javob beradigan 1 (bir) abonent raqamiga 1 (bir) mobil qurilmani muddatli to'lov sharti bilan rasmiylashtirish mumkin. Keyingi mobil qurilmani rasmiylashtirish uchun Ishtirokchi avval olingan mobil qurilma uchun qarzdorlikni to'liq to'lashi kerak.

Abonentning tarif rejasi qiymati tegishli tarif rejasi shartlariga muvofiq abonent tomonidan alohida va mustaqil ravishda to'lanadi hamda muddatli to'lov uchun oylik to'lovlar tarkibiga kirmaydi. Muddatli to'lov bo'yicha oylik to'lovlar faqat Mobil qurilma uchun to'lovga taalluqli. Abonent muddatli to'lov bo'yicha oylik to'lovni to'lamagan yoki o'z vaqtida to'lamagan taqdirda, tarif rejasiga muvofiq abonent to'lovi to'langan va o'z vaqtida to'lanishidan qat'i nazar, abonentning mobil balansi salbiy holatga tushishi mumkinligini tan oladi va bunga rozilik bildiradi.